

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
«YOSH OLIMLAR TIBBIYOT JURNALI»

TASHKENT MEDICAL ACADEMY
«MEDICAL JOURNAL OF YOUNG SCIENTISTS»

ТАШКЕНТСКАЯ МЕДИЦИНСКАЯ АКАДЕМИЯ
«МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ МОЛОДЫХ УЧЕНЫХ»

IXTISOSLASHUVI: «TIBBIYOT SOHASI»

ISSN: 2181-3485

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil i5 sentabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi.

№ 7 (09), 2023

«Yosh olimlar tibbiyot jurnali» jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023 yil 5 maydagi 337/6-son karori bilan tibbiyot fanlari buyicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan.

Решением Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 мая 2023 г. № 337/6 «Медицинский журнал молодых ученых» внесен в перечень национальных научных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Шадманов Алишер Каюмович

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Шайхова Гули Исламовна

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ

Алимухамедов Дилшод Шавкатович

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

д.м.н., доцент Азизова Ф.Л.
профессор Азизова Ф.Х.
профессор Аллаева М.Ж.
профессор Камилов Х.П.
профессор Каримжонов И.А.
профессор Каримова М.Х.
профессор Набиева Д.А.
профессор Нажмутдинова Д.К.

профессор Нуриллаева Н.М.
профессор Тешаев Ш.Ж.
профессор Хайдаров Н.К.
профессор Хакимов М.Ш.
профессор Хасанов У.С.
д.м.н. Худойкулова Г.К.
профессор Эрматов Н.Ж.
профессор Маматкулов Б.М.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА

Агишев И.А.
Аглиулин Д.Р.
Алейник В.А.
Билолов Э.Н.
Ганиев А.А.
Инаков Ш.А.
Искандарова Г.Т.
Исраилов Р.
Кайнарбаева М.С.
Матназарова Г.С.
Мирзоева М.Р.
Мирмансур
Муртазаев С.С.
Орипов Ф.С.
Отamuraдов Ф.А.

д.м.н. (Казахстан)
к.м.н. (Россия)
профессор (Андижан)
профессор (Ташкент)
д.м.н. (Ташкент)
PhD (Германия)
профессор (Ташкент)
профессор (Ташкент)
к.м.н. (Казахстан)
профессор (Ташкент)
д.м.н. (Бухара)
PhD (Индия)
д.м.н. (Ташкент)
д.м.н. (Самарканд)
д.м.н. (Термез)

Парпиева Д.А.
Рахимова Г.С.
Рустамова М.Т.
Саломова Ф.И.
Сидиков А.А.
Собиров У.Ю.
Тажиева З.Б.
Ташкенбаева У.А.
Хасанова Д.А.
Хасанова М.А.
Хван О.И.
Хожиметов А.А.
Холматова Б.Т.
Чон Хи Ким
Юлдашев Б.С.
Шадманов М.А.

д.м.н. (Ташкент)
д.м.н. (Ташкент)
д.м.н. (Ташкент)
профессор (Ташкент)
д.м.н. (Фергана)
профессор (Ташкент)
PhD (Ургенч)
д.м.н. (Ташкент)
д.м.н. (Бухара)
д.м.н. (Ташкент)
д.м.н. (Ташкент)
профессор (Ташкент)
д.м.н. (Ташкент)
PhD (Южная Корея)
д.м.н. (Ургенч)
PhD (Андижан)

Адрес редакции:

Ташкентская медицинская академия 100109, г.
Ташкент, Узбекистан, Алмазарский район, ул. Фараби 2,
тел.: +99878-150-7825, факс: +998 78 1507828,
электронная почта: mjys.tma@gmail.com

Отажонов И.О., Уринов А.М. / Применение новых экспериментальных моделей цирроза печени на лабораторных животных	143
--	-----

НАУЧНЫЕ ОБЗОРЫ

Mirkhamidova S.M., Aashikaa Juslee J.K., Ilyasova M.M., Israilov J.D. / Results of the survey on awareness of medical students about lung cancer	147
Mirkhamidova S.M., Paresh R.K., Ilyasova M.M., Israilov J.D. / Public awareness about blood cancer in adults	156
Mirkhamidova S.M., Gokul R.S., Ilyasova M.M., Israilov J.D. / Results of the population awareness about dengue fever.....	166
Куранбаева С.Р., Мусаева Ю.А., Жураев З.З., Каландарова С.Х., Маткаримов Х.С., Мажидов Л.Н. / Судорожный синдром при хронической ишемии головного мозга	171
Qarshiyeva Sh.M., Muminova Z.A. / Menapauza davridagi ayollarda semizlikning rivojlanishi va uning oqibatlari	175
Rakhimov B.B., Shayhova G.I. / Prevalence of obesity among children and adolescents in Uzbekistan.....	179
Неъматова Н.Ў., Бегимкулова С.А., Алматова У.А., Мирахматова М.Н. / Шифохона ичи ОИВ-инфекциясининг эпидемиологияси ва профилактикаси	183
Хаджимуратова М.Х., Юлдашев Б.С. / Аёлларда сут бези касалликларининг пролиферацияланишининг клинко-морфологик ўзига хослиги	187
Shermuhamedova F.K., Daminova X.M., Mamajonov F.E., Kutlimuratova M.B. / Oddiy va assotsirlashgan migren rivojlanish patogeneziga zamonaviy qarashlar	193
Эрматов Н.Ж., Абдулхаков И.У., Шукуров А.Н., Насирдинов М.З., Ишматов Ш.Р. / Эндокрин тизим касалликларини ривожланишида овқатланиш тартибини ўрни ва аҳамиятини ижтимоий гигиеник хусусиятлари	200
Шермухамедова Ф.К., Муратов Ф.Х. / Семизлик жараёнида ривожланган ишемик инсульт клиникаси ва кечув хусусиятлари.....	209
Дадаходжаева М.Р. / Изучение кислородосодержащих органических соединений с помощью интерактивных методов	214
Юлдашев Б.С., Каримов Р.Х., Бекчанов А.Ж. / Пандемия даврида пневмония касаллиги билан касалланган чақалоқларда ўлим сабаблари.....	220
Шайхова Г.И., Отажонов И.О., Азизова Ф.Л. / Сурункали буйрак касаллигида кам оксилли парҳезнинг аҳамияти.....	224

MENAPAUZA DAVRIDAGI AYOLLARDA SEMIZLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING OQIBATLARI

Qarshiyeva Shohista Musurmon qizi – 1 kurs magistr
Muminova Ziyoda Abrarovna - D.M.Sc., dosent
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. So'nggi o'n yillikda, butun dunyo bo'yicha semizlik ko'payib bormoqda va bu ko'rsatkich Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining qariyb 45 foizini tashkil qilishi mumkin. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, semizlikdan ko'proq ayollar aziyat chekmoqda, ayniqsa menopauza davriga kirayotgan ayollar shular jumlasidandir, chunki ayol organizmi jinsiy gormonlarining asosini tashkil qiluvchi esterogen gormonlari, energiya balansini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinsiy gormonlar yog'to'qimasi metabolizmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va bu o'z navbatida organlarda bir qancha salbiy oqibatlarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu salbiy oqibatlar albatta nafaqat ayolning hayot sifatining yomonlashuviga va balki shu orqali jamiyatga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Shunday ekan, menopauza davriga shunchaki ayol kishida ro'y berishi kerak bo'lgan fiziologik jarayon sifatidagina emas, balki muhim tibbiy jarayon sifatida ham qarashimiz kerak ekan, chunki menopauza davrida sodir bo'layotgan metabolik sindromlar ayollardagi o'sma va yurak-qon tomir kasalliklariga ham sabab bo'lmoqda va buning oqibati esa albatta ayollarning nogironlikka duchor bo'lishi bilan yakunlanmoqda.

Kalit so'zlar: menopauza, metabolik sindrom, semizlik, yurak qon-tomir, o'sma, 2-tip qandli deabet, abdominal semizlik, esterogen reseptor.

РАЗВИТИЕ ОЖИРЕНИЯ И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ У ЖЕНЩИН В ПЕРИОД МЕНАПУЗЫ

Каршиева Шохиста Мусурмон кизи - магистр 1 курса
Муминова Зиёда Аббаровна - д.м.н., доцент
Ташкентская Медицинская Академия. Ташкент, Узбекистан

Аннотация. За последнее десятилетие во всем мире наблюдается рост ожирения, и, по данным Всемирной организации здравоохранения, к 2030 году этот показатель может достичь 45% населения мира. Исследования показывают, что больше женщин страдают от ожирения, особенно женщины, вступающие в менопаузу, поскольку гормоны эстрогены, являющиеся основой половых гормонов в женском организме, играют важную роль в регулировании энергетического баланса. Половые гормоны влияют на метаболизм жировой ткани, а это, в свою очередь, приводит к развитию ряда негативных последствий в органах. Эти негативные последствия безусловно сказываются не только на ухудшении качества жизни женщины, но и общества. Поэтому следует рассматривать период менопаузы не только как физиологический процесс, который должен протекать у женщины, но и как важный лечебный процесс, поскольку метаболические синдромы, возникающие в период менопаузы, могут приводить к опухолевым и сердечно-сосудистым заболеваниям у женщин. также причина и результат этого, безусловно, заканчиваются тем, что женщины становятся инвалидами.

Ключевые слова: менопауза, метаболический синдром, ожирение, сердечно-сосудистые заболевания, опухоль, сахарный диабет 2 типа, абдоминальное ожирение, эстрогеновые рецепторы.

DEVELOPMENT OF OBESITY AND ITS CONSEQUENCES IN WOMEN IN THE PERIOD OF MENAPAUSE

Qarshiyeva Shohista Musurmon qizi - 1st year master
Muminova Ziyoda Abrarovna - D.M.Sc., associate professor
Tashkent Medical Academy, Tashkent, Uzbekistan

Annotation. *Over the past decade, obesity has been on the rise worldwide, and according to the World Health Organization, by 2030, this figure may reach 45% of the world's population. Research shows that more women suffer from obesity, especially women who are entering menopause, because estrogen hormones, which are the basis of sex hormones in the female body, play an important role in regulating the energy balance. Sex hormones affect the metabolism of adipose tissue, and this, in turn, leads to the development of a number of negative consequences in organs. These negative consequences certainly affect not only the deterioration of the quality of life of a woman, but also the society. Therefore, we should consider the menopause period not only as a physiological process that should occur in a woman, but also as an important medical process, because the metabolic syndromes that occur during the menopause period can lead to tumor and cardiovascular diseases in women. is also the cause and the result of this is definitely ending with women becoming disabled.*

Key words: *menopause, metabolic syndrome, obesity, cardiovascular, tumor, type 2 diabetes, abdominal obesity, estrogen receptor.*

Menopauza – odatda, ayollar orasida, eng ko‘p tashvishga sabab bo‘ladigan holat hisoblanadi. Bu davrda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlardan eng ko‘p uchraydigani vazn ortishi bo‘lib, ayollar ortiqcha tana vazniga ega bo‘lib borishdan qo‘rqishadi. Darhaqiqat, ayollarda menopauza davrida semizlik va metabolik sindromning uchrash ko‘rsatkichi, menopauzadan oldingi davrdan uch barobar ko‘proqni tashkil qilishi aniqlangan.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning bergan ta‘rifiga ko‘ra, semizlik yoki ortiqcha vazn – bu, inson salomatligiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan noodatiy yoki ortiqcha yog‘ moddasining to‘planishi hisoblanadi (WHO, Obesity and overweight, fact sheet, updated June 2016). Polsha Endokrinologiya Jamiyatining ta‘rifiga ko‘ra esa semizlik va ortiqcha vazn – bu, yog‘ to‘qimalarining to‘planishi tufayli yuzaga keluvchi surunkali kasallik bo‘lib, hozirgi kun “sivilizatsion kasalligi” deb nomlanuvchi: yurak qon tomir, o‘sma va metabolik kasalliklarning rivojlanish xavf omillarini o‘sib borishiga olib kelmoqda (Diagnostic and therapeutic algorithms of PSE, 2014).

Menopauza – oxirgi menstrual sikldan keyingi 12 oy ichida hayzning kelmasligi bo‘lib, menstrual siklning tugashi hisoblanadi.

Bu tuxumdondagi follikulalarning yetilish jaroyinining susayishi va natijada esterogen gormoni ishlab chiqarilishining kamayishi demakdir. Menopauza davridan oldin premenopauza davri bo‘lib, bu vaqtda hayz siklining regular ravishda kelishi davom etadi va lekin so‘nggi 3-12 oy davomida noregular ravishdagi qon ketishi perimenopauza holatidan dalolat beradi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, ayollarda menopauza davri o‘rtacha, 51.3±5 yoshda uchraydi.

Menopauza davrida ayollarning hayotida distress simptomlar bo‘lmish: qizib ketish, uyqu buzulishi, kayfiyat o‘zgaruvchanligi, urogenital traktning infeksiyalari kabilar kuzaatiladi. Bundan tashqari, ayni shu vaqtda bu simptomlar bilan birgalikda, ko‘plab metabolik muammolar – tana vaznining oshishi, insulina rezistentlik, glukoza va lipid metabolizmining buzilishi ham uchraydi. Buning natijasida, 2-tur diabet, osteoparoz, yurak-qon tomir va o‘sma kasalligining rivojlanish xavfining oshishiga olib keladi.

Semizlik menopauza davri bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim buzilish bo‘lib, bu faqat tibbiy emas, balki ijtimoy va iqtisodiy muammo ham hisoblanadi. G‘arb davlatlarida semizlik 40 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan ayol-

larda 65%ni, 65 yoshdan oshgan ayollar orasida esa qariyb 74%ni tashkil qilmoqda.

Menapauzal semizlikning rivojlanish mexanizmi. Esterogenning metabolizm va energetik balansdagi roli.

Tana vaznining oshish mexanizmlari, ayniqsa menopauza davri bilan bog'liq. Ayollarda esterogen gormonlari teri osti to'qimalariga ayniqsa, gluteal va son sohalarida yog' to'qimalarining to'planishiga sabab bo'ladi. Esterogenlarning biologik ta'siri genetik hujayralarning yadro retseptorlari bilan bog'liq. Bu kabi reseptorlarning ikki xili mavjud bo'lib, ular ER α va ER β hisoblanadi. Boshqa jinsiy gormonlar – androgenlar – abdominal sohada yog' to'planishiga olib keladi. Demak, menopauza davrida esterogen gormonlarining kamayishi va giperandrogenemiyaning yuzaga kelishi hisobiga, yog' hujayralarining ginoid sohadan abdominal sohaga taqsimlanishining ortishi tufayli semizlikning abdominal tarzda kuchayishi sodir bo'ladi. Markaziy ya'ni abdominal semirishga sabab bo'luvchi omillardan yana biri bu jigarda ishlab chiqariluvchi va androgenlarning biologik qobiliyatini oshiruvchi - globulinga bog'langan jinsiy gormonning kamayishi hisoblanadi. Shuni aytish joizki, postmenapauzal davrda semizlik premenapauzal davrdan 5 barobar ko'proq uchraydi. Natijada sifatida shu ma'lum bo'ladi, menopauza davrida visseral semizlik 44%ga, va gineoid semizlikning 32%ga oshishi kuzatiladi.

Esterogen gormonlarining ishtahaga ta'siri.

Ishtaha va umuman energiya balansi muntazam ravishda, markaziy nerv sistemasi, aniqrog'i gipotalamus tomonidan boshqariladi. Bu yerda yoysimon, ventro-medial va paraventriculyar yadrolar joylashgandir. Bu trigger strukturalarning maxsus neyronlari, oreksigen va anoreksigen ya'ni ishtahani rag'batlantiruvchi va susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tilgan esterogen reseptorlarining ikkala turlari ham ayniqsa, ER α shu maydon yadrolarida joylashgan. Hayvonlarda o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, gipotalamik proopimelanokortin neyronlaridagi ER α ning aktivlanishi, ishtahaning yo'qolishiga olib kelgan. Neyropeptid Y – gipotalamus tomonidan ishlab chiqariluvchi oreksigen pep-

tid – esterogen gormonlari tomonidan miqdori nazorat qilinib turiladi. Bundan tashqari, grellinning faolligi – kuchli oreksigen ya'ni ishtahani rag'batlantiruvchi peptid bo'lib, asosan oshqozondan ajralsa ham lekin, gipotalamusdan ishlab chiqariladi – bu peptid ham esterogen gormoni tomonidan kamaytiriladi. Shunday qilib, ko'rib turibmizki, esterogenlar energetik balansni boshqariluvda markaziy o'rinni egallab, markaziy nerv sistemasiga ishtahani boshqariluviga ta'sir ko'rsatadi.

Hech shubha yo'qki, menopauza davrida ortiqcha vaznga ega bo'lish muhim hioblanadi. Bu ko'rib o'tganimizdek organizmdagi gormonal o'zgarishlarga bog'liq ravishda sodir bo'lar ekan. Lekin, albatta boshqa omillarga ham bog'liq ekanligini unutmasligimiz kerak. Bu kabi omillarga nasliy, atrof muhit omillari, hayot tarzining o'zgarishi, kasalliklar (gipotiroidizm, Kushing sindromi) va boshqa omillar ham sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa

Menopauza bilan bog'liq bo'lgan semirishdan qo'rqish ayollar orasida keng tarqaldi. Bu qo'rquvga asosiy sabab esa, semizlik va ortiqcha vaznning qo'shib borishi ayollarning hayot sifatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan ayniqsa yurak qon tomir va o'sma kasalliklarining rivojlanishiga olib kelmoqda. Butun dunyo aholisida semizlik va ortiqcha vaznning kelib chiqishi bu holatning ayniqsa menopauza davrida ayollarda vujudga kelayotganligi tufayli bu kabi metabolik muammolarning kelib chiqishiga faqat tibbiy emas balkim ommaviy ijtimiy-iqtisodiy muammo sifatida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Biroq, ayollarda bu davrda paydo bo'layotgan semizlik va ortiqcha vaznning kelib chiqishi va rivojlanish mexanizmlarini o'rganish bu metabolik o'zgarishlarning muqarrar emasligi va bunga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va kerak bo'lsa menopauza davrida gormonl terapiyadan foydalanish orqali yengish imkoniyatini berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar.

1. Kwaśniewska M, Pikala M, Kaczmarczyk-Chałas K va boshqalar. Chekish holati, ayollarda menopauzaga o'tish va metabolik sindrom. Menopauza 2012; 19: 194-200.

2. Flegal KM, Carroll MD, Ogden CL va boshqalar. AQShda kattalar orasida semirishning tarqalishi va tendentsiyalari, 1999-2008. *J Am Med Ass* 2010; 303: 235-241.

3. Stefańska A, Bergmann K, Sypnevsk G. Metabolik sindrom va menopauza: patofiziologiya, klinik va diagnostik ahamiyati. *Adv Clin Chem* 2015; 72: 1-75.

4. Donato GB, Fuchs SC, Oppermann K va boshqalar. Menopauza holati va markaziy yog'lilik o'rtasidagi bog'liqlik turli xil chegaralarda o'lchanadi bel atrofi va belning kestirib nisbati. *Menopauza* 2006; 13: 280-285.

5. Panotopoulos G, Raison J, Ruiz JC va boshqalar. Menopauza paytida kilogramm ortishi. *Hum Reprod* 1997; 12 Qo'shimcha 1: 126-133.

6. Luglio HF. Ayollarda estrogen va tana vaznini tartibga solish: roli adipotsitlar lipolizidagi estrogen retseptorlari alfa (ER-a). *Acta Med Indones* 2014; 46: 333-338.

7. Pedersen SB, Kristensen K, Hermann PA va boshqalar. Estrogen lipolizni nazorat qiladi estrogen retseptorlari alfa orqali to'g'ridan-to'g'ri odamning yog' to'qimasida alfa2A-adrenergik retseptorlarini yuqori tartibga solish orqali. uchun oqibatlar ayol yog'ining taqsimlanishi. *J Clin Endocrinol Metab* 2004; 89: 1869-1878.

8. Foryst-Ludwig A, Kintscher U. Estrogen signalizatsiyasining metabolik ta'siri ERalpha va ERbeta orqali. *J Steroid Biochem Mol Biol* 2010; 122: 74-81.

9. Toth MJ, saytlar CK, Eltabbakh GH va boshqalar. Menopauza holatining insulin bilan stimulyatsiya qilingan glyukozani yo'q qilishga ta'siri: o'rta yoshdagi premenopauzani

taqqoslash va erta postmenopozal ayollar. Qandli diabetga qarshi kurash 2000; 23: 801-806.

10. Davis SR, Robinson PJ, Moufarege A va boshqalar. SHBG ning hissasi HOMA-IRning o'zgarishi endogen estrogen bog'liq emas yoki postmenopozal ayollarda androgen darajasi. *Clin Endocrinol (Oxf)* 2012; 77: 541-547.

11. Carr MC. Menopauza bilan metabolik sindromning paydo bo'lishi. *J Clin Endocrinol Metab* 2003; 88: 2404-2411.

12. Kalyani RR, Franko M, Dobbs AS va boshqalar. Endogen jinsiy aloqa assotsiatsiyasi. Hodisa qandli diabet bilan gormonlar, yog'lilik va insulin qarshiligi

Postmenopozal ayollar. *J Clin Endocrinol Metab* 2009; 94: 4127-4135. 13. Piché M-E, Weisnagel SJ, Corneau L va boshqalar. Qorin bo'shlig'ining hissasi Postmenopozal ayollarning yurak-qon tomir xavfi profiliga visseral semirish va insulin qarshiligi. *Qandli diabet* 2005; 54: 770-777.

14. Sutton-Tyrrell K, Wildman RP, Matthews KA va boshqalar. Jinsiy gormonlarni bog'lash globulin va erkin androgen indeksi yurak-qon tomir xavfi bilan bog'liq Millat bo'ylab ayollarni o'rganish (SWAN) ga kiritilgan ko'p millatli premenopozal va perimenopozal ayollardagi omillar. *Aylanma* 2005; 111: 1242-1249.

15. Barros RP, Gabbi C, Morani A va boshqalar. ERalpha va ERbeta ishtiroki skelet mushaklari va oq yog 'to'qimalarida glyukoza gomeostazida. *Am J Physiol Endocrinol Metab* 2009; 297: E124-133.